

**BUVAYDALIKLAR MULOQOT XULQIDA QO‘LLANILADIGAN HAZIL-
MUTOYIBALARNING LINGVOKULTROLOGIK TADQIQI**

Sidikjon Muminov,
*FarDU professori,
filologiya fanlari doktori.*

Feruza Akramjonova,
*FarDU filologiya fakulteti
talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Farg‘ona viloyati Buvayda tumanida istiqomat qiladigan o‘zbeklar muloqot xulqi, unda hazil-mutoyibalarning qo‘llanilishi turli risola, manbalardan, jonli muloqot jarayonidan olingan misollar yordamida lingvokulturologik aspektida bayon qilingan.

Kalit so‘z va iboralar: hazil-mutoyiba, yumor, satira, muloqot, lug‘at, kinoya, askiya.

Azal-azaldan hazil-mutoyiba inson muloqot jarayonining ajralmas bir qismi bo‘lgan. Chunki hazil-mutoyiba insonga dunyoni o‘zgartish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha quvvat beradi, qiyinchiliklarni yengish vositasi sifatida xizmat qiladi. Inson har doim bir xil kayfiyatda yurishi qiyin. Hayotning turli xil past-balandliklari, qiyinchiliklari kelganda, irodali insonlargina unga yuzma-yuz bo‘la oladi. Shunday hollarda insonni ruhiy tushkunlikdan xalos etish uchun hazil-mutoyiba yordamga keladi. Ma’lum bir vaqtga bo‘lsa-da, inson dardlarini unutadi, ichidagi g‘amlari arigandek bo‘ladi, shukronalik hissini tuyadi. Shu sababli ham hazil-mutoyibaning insonlar hayotidagi o‘rni beqiyos. Hazil – bu, kulgili narsalarni topish qobiliyatiga ega bo‘lish demakdir. Shuningdek, kulish hissini paydo qiladigan so‘zlar majmuasidir.

Hazil haqidagi dastlabki izlanishlar qadimgi donishmandlar *Platon* va *Aristotellarga* borib taqaladi.

O‘zbeklar nutqida qo‘llanadigan hazil so‘zi (arab. – kulgi, mazax qilish, tegishish, hazillashish) [1, 478] qiziqchilik ermak uchun o‘ynashib qilingan xatti-harakat yoki aytiladigan gap, jiddiy, chin emas ma’nolarida ishlatiladi.

Askiya so‘zi “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aqlli, ziyrak, zehnli, qobiliyatli ma’nolarini ifodalovchi zakiy so‘zining ko‘plik shakli (azkiyo)dir [4, 687].

Yumor(ing-xumour-kayfiyat,moyillik) – komiklik turlaridan biri. Badiiy asarda voqea-hodisalar ustidan yengil, do‘stona, beg‘araz kulish. Yumorda kulgililik ochiq-oshkora namoyon bo‘ladi, ammo oshkor kulgi ostida yengil-yelpi hazil, ko‘ngilxushlik maqsadi emas jiddiylik mavjud. Yumor o‘z obyektida qisman bo‘lsa-da, idealga muvofiq jihatlarni ko‘radi, uni mukammallashtirish, nuqsonlarni bartaraf qilish, undagi umuminsoniy qimmatga molik jihatlarni yuzaga chiqarish maqsadini

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ko‘zlaydi. Shuning uchun yumorda tanqid ruhi nuqsonlar ustidan kulish bilan birga xayrixohlik, achinish ham mavjud. Yumor bir qarashda kinoyaga o‘xshaydi. Aslida yumorda kulgi niqobi ostida jiddiylik, kinoyada esa jiddiylik niqobi ostida kulgi yashiringan bo‘ladi [2,117].

Hazil umuman olganda, askiya, yumor, satiraga yaqin turadi, ammo ulardan farqlanuvchi jihatlari ham mavjud. Hazil-mutoyiba askiyaga shu qadar yaqin. lekin askiya lirik-dramatik tur elementlarini o‘zida mujassamlashtirgan, adabiy ijodning hamma tur va janrlarida barobar ishtirok eta oladigan janr bo‘lib, xalq og‘zaki ijodining epik turiga xos satira va yumorga yaqin turadi. Tarixchi olim B.Ahmedovning ma’lumot berishicha, askiya Amir Temur davrida rivojlangan. Boyazidning Amir Temurga qilgan askiya bunga yaqqol misol bo‘la oladi: "*Dunyo bir ko‘r bilan bir cho‘loqqa qolganini qara*" [3, 41] kabi.

Hazil-mutoyiba har bir xalq, har bir viloyat, tuman, hattoki qishloq va mahallalarda ham mavjud bo‘lib, o‘ziga xos an’analar bilan davom etib keladi. Xususan, Buvayda tumani ham askiya va hazil-mutoyibaning qaynab turgan qozoni desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Buvaydalik *Nabijon Mamadaliyev, Muhiddin Darveshov, Tolib buva, Sherxon shoir, Inomjon aka, shoir Qodir Dehqon, Yetovqo‘zi, Kamoliddin, Olimjon akalarni* hazil-mutoyiba deganda esga olmaslikning iloji yo‘q. Buvayda tumaniga ta’rif berilganda ham bir-biridan qolishmas so‘z ustalari ko‘z oldimizga keladi. Buvaydada afandi nomlari bilan mashhur bo‘lganlar ham bor. Hattoki Buvayda afandisi deb “Buvayda hangomalari” kitobida ham keltirib o‘tilgan [5. 77].

Tumanning Buvayda mavzeyidagi qishloqlarda ham o‘zlarining ajoyib xislatlari bilan el-yurt orasida ovoza bo‘lgan kishilar ko‘plab topiladi. Ana shulardan biri butun umri hazil-mutoyibaga to‘la o‘tayotgan latifago‘y, afandisifat inson Usmonxo‘ja Ismoilovdir.

Usmonxo‘ja aka yoshlikdanoq xo‘jalik faollari safiga qo‘shilgan. Ikkinchi jahon urushi jangohlarida mardonavor jang qilgan. 18-armiya askalari qatorida mashhur “Kichik yer” jangchisi nomini olgan.

Urushdan so‘ng qishloqqa qaytgan. U. Ismoilov yana xo‘jalik ishlab chiqarish faollari safida ish boshladi. Sutchilik fermasi mudiri, partiya tashkiloti kotibi, xalq nazorati guruhi raisi, kolxozda klub mudiri vazifalaridan sidqidillik bilan mehnat qildi. Umr yo‘ldoshi Sanamxon aya bilan birgalikda 10 farzandini munosib kishilar qilib tarbiyaladi. Avazxon o‘qituvchi, Abbosxon meditsina xodimi, Odilxon san’atkor. Boshqa farzandlari ham turli jabhalarda halol-pok xizmat qilib kelmoqdalar.

Baxtli keksalik gashtini surayotgan Usmonxo‘ja aka ishtirok etgan davralarning fayzi o‘zgacha bo‘ladi. U yangi-yangi latifalar aytish bilan birga o‘zi ham hayotda

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

ajabtovur ishlarni bajarib yuradi. Ayniqsa, Muhiddin Darveshning ichakuzdi hangomalari buyaydiliklar muloqot xullqidagi o‘ziga xoslikni yorqin ochib beradi. Fikrimiz quruq bo‘lmasligi uchun quyida uning hangomalari majmuidan o‘rin olgan bir lavhani keltiramiz: “...Bir kuni afandi bozorga boribdi. Eshagini bozorning darvozasi oldiga bog‘lab o‘zi bozor ichiga kirib ketibdi. Bir vaqt afandi bozordan chiqsa, eshagi joyida yo‘q emish. Rosa qidiribdi, odamlardan so‘rabdi, lekin topilmabdi. Keyin afandi baqirib debdi: “Kimdagi eshagimni olgan bo‘lsa men bozorga kirib shiqqunimcha joyiga qo‘yib qo‘ysin, bo‘lmasa otam qilgan ishni qilaman...”

Hamma hayron bo‘libdi. Afandi bozorni bir aylanib chiqsa eshagi joyida turganmish. Darrov borib eshagini minibdi-da ortga qaytgani yo‘lga tushibdi. Odamlar hayron bo‘lib afandidan: “Agar eshagingiz topilmaganda nima qilardingiz, otangiz nima ish qilgandi?”, – deb so‘rashibdi. Shunda afandi: “Indamay piyoda ketgan bo‘lardim. Otam ham xuddi shunday qilgan”, – deb javob beribdi... [6, 77].

Sobiq oblast partiya komentining sobiq birinchi kotibi Hamdam Umarov kolxoz idorasi yonida rais bilan gaplashib turgan ekan. Silos bostirilayotgan g‘oyat dolzarb pallada pritsep to‘la makkapoya yuklagan traktorni haydovchisi yonida Usmonxo‘ja aka kelayotgan ekan. Jim o‘tib ketavermasdan shu yerda to‘xtab, Usmonxo‘ja aka rahbarlar tomoniga yuribdi. Ungacha rais Hamdam Umarovichga tushuntirish beribdi.

– Bu, o‘rtoq Ismoilov – xalq nazorati guruhi raisi. Kecha-yu kunduz tinmay ishlayapti. Kolxoz makkapoyalarini talon-taroj qilayotganlardan tortib olib, fermaga tashib kelyapti.

Usmonxo‘ja aka yetib kelib katta rahbar bilan qo‘l berib so‘rashar ekan, hijolatomuz debdi:

– Hamdam aka, raisdan so‘rab cho‘ldan shaxsiy tomorqa ochgan edim. Shu yerdagi makkapoyani o‘rib keltirishga bugun vaqt topgandim...

Rais Usmonxo‘ja akaga qarab qattiq tomoq qiribdi. Hamdam Umarovich esa raisga qarab “Him, tushunarli”, debdi-yu mashinaga tomon yurib ketibdi.

– Men bo‘shmanmi, ketaveraymi? – so‘rabdi Usmonxo‘ja aka.

Mehmonning orqasidan ketayotgan rais o‘girilib turib:

– Bo‘shsan! Umuman bo‘shsan! Bo‘shading! – degan ekan.

Yuqorida keltirilgan bir-biridan qiziqarli hazil-mutoyibalarni o‘qib yuzimizga tabassum yugurmasligining iloji yo‘q. Bunday hangomalarni o‘qigan insonlarning kayfiyati hamisha yaxshi bo‘ladi va kayfiyati yaxshi insonning ko‘ngli ochiq bo‘ladi, ko‘ngli ochiq insondan esa yomonlik chiqmaydi.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Bundan ko‘rinib tiribdiki, Buvayda xalqi hazil-mutoyibaga, hangomaga boy, odamlarining ko‘ngli va qo‘li ochiq, hamisha yaxshi kayfiyatda yuradigan, hamsuhbat va shirinso‘z kishilardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do‘smatov H. Askiya-so‘z o‘yinlari san‘ati. – Farg‘ona, 2022.
2. Razzoqov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida satira va yumor. – Toshkent: Fan, 1965.
3. Sultonov X. Askiya. – Toshkent, 1998.
4. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 5 jildli, 5- jild. – Toshkent: “O‘zbekiston” milliy ensiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2008.
5. Xo‘jayev E. Buvayda hangomalari. – Farg‘ona, 1998.
6. Kahramanov K. Naim Karimov Is a literary scholar, Scholar and critic. Rivista Italiana di Filosofia Analitica Junior. 2023, Vol 14. ISSN: 2037-4445.
7. Makhbuba Urazbayeva, Burkhanova Feruza, Pardayeva Nigora, Atabayeva Go‘zal, Qodirova Mashhura. Issues of Distribution of Bear Image in Uzbek Novels. Journal of Advanced Zoology. 2023. 2184-2192 p.
8. Omanova, M. (2024). IMPORTANCE OF VOICE IN EXPRESSIVE READING. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 12(1), 125-128.
9. Omanova, M. A. (2020). Updating views on literary heroes and glory in the novels of the period of independence. Novateur publications JournalNX-A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 6(10), 415-419.
10. Qalandarova, D. Z. (2024). EPIK JANRLARNING XORIJDA TADQIQ ETILISHI MASALALARI (“Alpomish” dostoni misolida). Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 79-83.
11. Atabayeva, G. Z. (2024). NIZOMIY GANJAVIYNING “XAMSA” ASRIDAGI OBRAZLAR TAHLILI VA GENEZISI. 2-SBİN, 1-YIL YANVARYA 2024-GO-1-YIL KISHM, 12.
12. Burxanova, Feruza. "JAHON ADABIYOTI NAMUNALARI NAZAR ESHONQUL NIGOHIDA." Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 4.20 (2024): 68-78.
13. Kadirova, M. (2022). The Need For Improving The Methodology Of Teaching Folklore In Distance Learning. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 3(03), 1-6.
14. Omanova, M. (2024). NIZOMIY GANJAVIY MEROSINING ALISHER NAVOIY IJODIGA TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 4(20), 24-27.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

15. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
16. Omanova, M. A. (2023). Perfect human interpretation in Alisher Navoy’s creation. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 11(1), 346-347.